

INNOVATION WEEK



ТОШКЕНТ МОЛИЯ ИНСТИТУТИ
ИННОВАЦИОН ФАОЛИЯТИ

ТОШКЕНТ 2020



INNOVATION WEEK

Ўзбекистан Республикаси Президентининг 2018 йил 7 майдаги «Иқтисодиёт тармоқлари ва соҳаларига инновацияларни жорий этиш механизмларини такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПҚ -3698 сонли қарори ижросини таъминлаш мақсадида Илмий-инновацион ишланмаларни тижоратлаштириш бўлими ҳамкорликда институтимиз профессор-ўқитувчилари, докторантлар, илмий изланувчилар, магистрлар ва талабалар иштирокида илмий инновацион ишланмаларни тижоратлаштириш амалга оширилиб келинмоқда Жумладан, институтда олиб борилган илмий-тадқиқотлар натижалари Узбекистон Республикаси Марказий банки, АТБ “AGROBANK”, ХАБ “TRAСTBАНК”, ХАТБ “DAVRBANK”, ХАБ “UNIVERSALBANK”, АТ “Савдогар банк” ХАТБ “Туркестонбанк”, “LEVERAGE” МЧЖ, Ҳалқаро Олтин Мерос жамоат ҳайрия фонди, “ASR EDUCATION HOME” МЧЖ, “PACIFIC ACCOUNTING AND CONSULTING GROUP” ҚҚ “BMB trade group” МЧЖ, “QUT SAMARA” “SANTEX ELECTRO MONTAJ” МЧЖ, “GULISTON BROYLER” МЧЖ, “FAZO -LUXE” МЧЖ, “Ҳалқ сўзи ва Народное слово” газеталари таҳририяти, “Солиқ маслаҳати бўйича ўқитиш маркази” НТМ инновацион ҳамкорлик шартномалари асосида инновацион ишланмаларни тижоратлаштирилди.



INNOVATION WEEK

2018 йилда маблағ ҳажми 782,8 млн сўмлик ва 2019 йилда инновацион ишланмаларни тижоратлаштиришдан ва хўжалик шартномаларидан 1025,2 млн сўм тижоратлаштириш амалга оширилди.

Тошкент молия институти профессор-ўқитувчилари, илмий изланувчилар ва докторантлар томонидан 2018 йилда 19 та муаллифлик гувоҳномаси, 2019 йилда 31 та муаллифлик гувоҳномаси 2020 йил 1 сентябр ҳолатига 21 та муаллифлик гувоҳномаси олишга эришилди.

Тошкент молия институти магистр ва талabalari томонидан 2019 йилда 10 та стартап лойиҳа 2020 йил 1-сентябр ҳолатига 20 та стартап лойиҳалар амалиётга жорий этиб келинмоқда.



INNOVATION WEEK

ТОШКЕНТ МОЛИЯ
ИНСТИТУТИ

Кредитга лаёқатлилик таҳлилининг скоринг модели

Ишланманинг тавсифи: Инновацион дастурий хўжалик юритувчи субъектлар фаолиятини лаёқатлиигини баҳолашга мўлжалланган маҳсулот кредитга

Дастур хўжалик юритувчи субъектларнинг кредитга лаёқатлиигини ҳалқаро тажрибани мужассамлаштирган ҳолда 100 дан ортиқ молиявий ва номолиявий кўрсаткичлардан фойдаланган ҳолда инсон омили таъсирисиз ишончли баҳолаб беради

Қўлланилиш соҳаси: Тижорат банклари ва хўжалик юритувчи субъектлар

Иқтисодий самарадорлик: Инновацион дастурий маҳсулотдан фойдаланиш тезкор, ишончли ва тежамкордир. Ҳисоблаш методикаси орқали кредитга лаёқатлиигига аниқ баҳо бериш орқали самарали бошқарув қарорлари қабул қилиш имконини беради.

Тошкент молия институти , 100000, Тошкент шаҳар, Амир Темур шоҳ кўчаси ,

60^йуй

Тел : (0371) 234-53-34, факс: (0371) 234 -11-48. E-mail:admin@tfi.uz



INNOVATION WEEK

“БЮДЖЕТ ТАШКИЛОТЛАРИ ҲИСОБ СИЁСАТИ”

ЭЛЕКТРОН ДАСТУР

ҚИСҚАЧА ТАВСИФ

Ушбу электрон дастур бюджет ташкилотларида бухгалтерия ҳисобини аниқ ва түғри юритишга мүлжалланган. Мазкур дастур бюджет ташкилотларида бухгалтерия ҳисобини қонуний асосда түғри ташкил этиш ва юритиш имконини беради. Мазкур электрон дастурдан бюджет ташкилотлари кенг миқёсда фойдаланишлари мумкин.

КУТИЛАЁТГАН НАТИЖАЛАР:

бюджет ташкилотларида бухгалтерия ҳисобини қонуний асосда ташкил этади:

ушбу ташкилотларда бухгалтерия ҳисобини түғри ва аниқ юритади;

мазкур ташкилотларда бухгалтерия ҳисобини тезкор юритиш имконини бериши билан бирга вақтни тежашга ёрдам беради.

МУАЛЛИФЛАР:

Меҳмонов Султонали Умаралиевич

Азизов Улувбек Ўқтамович

ТОШКЕНТ МОЛИЯ ИНСТИТУТИ

Манзил: 100000, Тошкент шаҳри, А.Темур шоҳ кўчаси, 60а уй.

Тел: (0371) 234 -53-34

Факс: (0371) 234 -11-48

E-mail:admin@tfi.uz



INNOVATION WEEK

BusGo - bu xalqaro va shaharlararo marshrutlarda stansiyalar, yo'lovchilar va avtobus haydovchilarini birlashtiruvchi yagona SaaS (dastur ta'minot xizmat sifatida) platformasıdır. Mobil ilovadan (iOS yoki Android) foydalanib, yo'lovchi chiptani sotib olishi va joyni avvaldan band etishi, avtobus yo'nalishi va joylashishini kuzatishi, tashrif buyurish va jo'nash vaqtini onlayn bilib olishi mumkin. Bundan tashqari, oraliq stansiyalarda yo'lovchilar uchun chiptalarni sotib olish imkoniyati ham mavjud. Stansiyalar u chun web-interfeys yaratilgan bo'lib, unda kelgan avtobuslar va mavjud o'rindiqlar soni to'g'risida ma'lumotlar mavjud. Boshqaruv paneli yordamida transport kompaniyalari to'liq ma'lumotlarga ega bo'ladilar (avtobuslarning joylashuvi, mavjud o'rindiqlar soni, stansiyalarda yo'lovchilar soni va boshqalar), shuningdek, vizual ravishda to'liq tahlil qilingan ma'lumotlar va monitoringini ko'rishlari mumkin (yo'lovchilar sonining o'sishi, har bir yo'nalishda yo'lovchi oqimi, ommabop yo'nalishlar va boshqalar).

Muammo

Hozirda mavjud tizim oraliq stansiyalardagi yo'lovchilar uchun chiptalarni sotib olish imkoniyatini bermaydi, yo'lovchi tashish tahlili va har bir stansiyadagi yo'lovchilar sonining monitoring mavjud emas, natijada bu potensial yo'lovchilarni yo'qo tishga olib keladi. Avtobus harakat vaqtining uzayishi tufayli yo'lovchilarning yo'lida ko'p kutib qolishi muammosi mavjud. Stansiyalarda dispatcherlar uchun avtobuslar to'g'risida ma'lumotlarning yo'qligi- chiptani sotishni qiyinlashtiradi, natijada qo'shimcha yo'lovchilar yo'qotiladi. Yo'lovchi avtobusning kelish vaqtini va bo'sh joylar mavjudligiga ishonch hosil qila olmaydi, bu esa boshqa transport vositasini tanlashga olib keladi. Transport kompaniyalari vizual shaklda xaritalar, grafiklar, statistika va diagrammalar yordamida sodir bo'layotgan voqealar to'g'risida to'liq ma'lumotga ega emaslar (ommabop yo'nalishlar, yo'lovchi oqimi - qaysi stansiyadan avtobusdan tushib joyni bo'shatishlari), demak kompaniyaning samaradorlik, unumdarlik va rentabellik ko'rsatkichlari pasayadi.



INNOVATION WEEK

Yechim

Web-platforma, shuningdek Android va iOS uchun mobil dastur sifatida taqdim etilgan Minimal Mahsulot.

Umumiy ekotizimga birlashgan funktional modullar.

Mavjud modullar

1. Barcha jarayonlarni avtomatlashтирish.
2. Chiptalarni sotib olish va joyni band qilish.
3. O'rindiqlarni tanlash.
4. Xaridlar tarixi.
5. Sayohatlar tarixi.
6. Barcha yo'nalishlarni tahlil qilish.
7. Avtobuslarni real vaqtida kuzatib borish.
8. Avtobuslardagi mavjud o'rindiqlar monitoringi.
9. Barcha qurilmalardan masofadan kirish.
10. Kun / oy / yil statistikasi.
11. Har bir xaydovchining safar vaqtini to'g'risidagi ma'lumotlar.

Auditoriya

- Foydalanuvchilar - talabalar, sayohatchilar, ish safaridagi fuqarolar.
- Transport kompaniyalari
- O'zbekiston Respublikasi transport vazirligi

Yo'l xaritasi

Aprel 2020 - ilova beta-sinovdan o'tkazildi va Google Play -da ishga tushirildi



INNOVATION WEEK

- 2020 - tizimni uch yo'nalishda joriy qilish va sinovdan o'tkazish
- 2021 yil - O'zbekiston Respublikasida tizimning to'liq joriy etilishi
- 2024 - Xalqaro bozorga chiqish

Nima kerak?

- Investitsiyalar hajmi: 2020 yil - 300 million so'm; 2021 - 500 million so'm;
- O'zbekiston Respublikasi transport vazirligining yordami

1991